

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| D.T.Tursunova | |
| Ijtimoiy faoliik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari..... | 244 |
| Z.T.Aripov | |
| Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish | 247 |
| N.O.Saidova | |
| Boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalarda miqdoriy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari..... | 251 |
| M.A.Abdubannobova | |
| O'zbekistonda inkluziv ta'lif tizimi jarayoni va uning joriy etilishi..... | 254 |
| O.A.Ashurova | |
| Ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati..... | 257 |
| B.Latipov | |
| Ta'lif va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli | 261 |
| T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov | |
| O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi | 265 |
| V.T.Jo'rayev | |
| Oliy ta'lif massasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni | 269 |
| Z.M.Xursanova | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari | 274 |
| M.A.Jalilov | |
| O'yin texnologiyalari-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish vositasi sifatida | 279 |
| Z.X.Siddiqov | |
| Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lif yondashuvlar | 283 |
| M.G'Zaylobidinova | |
| Nodavlat ta'lif muassasalarida ta'lif oluvchilarning ta'lifni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish..... | 287 |
| Г.П.Наркабилова | |
| Влияние на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов и интеграция в образовательную практику | 291 |
| M.Sh.Dehqonova | |
| Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning turli bosqichlari..... | 295 |
| N.Q.Olimova | |
| Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish | 299 |
| D.T.Rustamova | |
| Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish..... | 304 |
| Y.U.Egamberdiyeva | |
| Boshlang'ich sinf o'qituvchisiining kreativlik sifatlarini rivojlantirish | 309 |
| U.Y.Axmedova | |
| Texnologik ta'lif asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda algoritm tushunchasini shakllantirish | 313 |
| M.U.Buvajonova | |
| Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi | 317 |
| M.A.Mamasaidova, S.Sobirova | |
| Matematikaga oid misol va masalalarni yechishda matematik tafakkurning muhim roli | 321 |
| M.A.G'ofurova | |
| Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish..... | 325 |
| D.M.Gazieva | |
| Psychological and pedagogical aspects of media use in education..... | 331 |



УО'К: 37.018.43

**O'YIN TEXNOLOGIYALARI-BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA
KASBIY TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA**

**ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**GAME TECHNOLOGIES AS A MEANS OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL
TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS**

Jalilov Muhammadali Abdumatalibovich 

Farg'ona davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lif uslubiyoti" kafedrasiga o'qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'yin texnologiyalari bilan tanishtirish asosida kasbiy tayyorgarlikni rivojlanishiga doir o'yin texnologiyalaridan foydalanish usullari va metodlari bayon qilingan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini darslarda o'yin texnologiyalaridan foydalanishi boshlang'ich sinf o'quvchisining ham rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Boshlang'ich ta'lif davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yin texnologiyalari alohida ahamiyatga ega ekanligi hamda o'quvchilar aqlini charxlashi, so'z boyligining oshirishi, og'zaki nutqining rivojlanishida, mukammal inson bo'lib kamol topishida g'oyat katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega ekanligi keng yoritilgan. Maqolada tadqiqot mavzusi bo'yicha mavjud adabiyotlar va ilmiy manbalar tahlil qilingan. Psixologlar va pedagoglarning tadqiqotlari va qarashlari keltirilgan. Adabiyotlardan olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, ular asosida o'yin texnologiyalarining muhimligi asoslangan. O'yin faoliyatining turli jihatlari, masalan, psixologik, tarbiyaviy, ijtimoiylashuv va didaktik maqsadlari tahlil qilingan va ularning farqlari ko'rsatilgan. Turli yoshdagagi bolalar uchun o'yinning xususiyatlari taqqoslangan. Pedagogik jarayonda o'yin texnologiyalarining qo'llanilishining muhimligi Respublikamizdagi ta'lif siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar kontekstida ko'rib chiqilgan.

Аннотация

В данной статье освещается вопрос о развитии профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов на основе их ознакомления с игровыми технологиями, а также описывается обучение современного учителя самосознанию, самоуправлению и самовоспитанию. Изложены методы и способы использования игровых технологий для формирования профессиональных качеств будущих учителей начальных классов. В статье также подчеркивается важность использования учителями начальных классов игровых технологий на уроках для развития учеников начальных классов. Особое внимание уделяется тому, что в период начального обучения дидактические игровые технологии имеют особое значение в организации умственной и физической деятельности учеников, а также оказывают большое воспитательное воздействие на их интеллектуальное развитие, расширение словарного запаса, развитие устной речи и формирование полноценной личности. Анализируя информацию, полученную из литературы, обоснована важность игровых технологий. Рассмотрены различные аспекты игровой деятельности, такие как психологические, воспитательные, социальные и дидактические цели, и показаны их различия. Сравнены особенности игр для детей разных возрастов. Важность использования игровых технологий в педагогическом процессе рассматривается в контексте образовательной политики и социально-экономических изменений в нашей Республике.

Abstract

This article describes the development of professional training for future elementary school teachers based on the introduction of game technologies, self-awareness, management, and training of a modern teacher. Methods and methods of using game technologies for the formation of professional qualities in future primary school teachers are described. It was also noted that the use of game technologies by primary school teachers in lessons is of great importance to the development of primary school students. Didactic game technologies are of particular importance in the organization of mental and physical activity of students during primary education, sharpening the mind of students, increasing their vocabulary, developing their oral speech, and becoming perfect human beings. It is widely reported that it has a great educational influence. The analysis of information obtained from the literature substantiates the importance of game technologies. Various aspects of gaming activity, such as psychological, educational, socialization, and didactic goals, have been analyzed and their differences highlighted. The characteristics of games for children of different ages have been compared. The importance of using game technologies in the educational process is considered in the context of educational policy and socio-economic changes in our Republic.

Kalit so'zlar: o'yin texnologiyalari, kasbiy tayyorgarlik, kreativ, rivojlantirish, sifat, samaradorlik.

Key words: game technologies, vocational training, creative, development, quality, efficiency.

Ключевые слова: игровые технологии, профессиональная подготовка, креатив, развитие, качество, эффективность.

KIRISH

Respublikamizda pedagogik ta'limdi rivojlantirish, jumladan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini hamda nazariy-metodik, refleksiv va tadqiqiy faoliyatini modernizatsiyalash, boshlang'ich ta'lim jarayonini o'yin vositalari asosida tashkil etishga tayyorlashning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi davlat siyosatida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy sifatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, dinamik xususiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya sohasi bo'lajak o'qituvchilardan pedagogik jarayonni tashkil etishga nisbatan kasbiy tayyorgarlikni talab etadi.

Ma'lumki, tez o'zgaruvchan ta'lim muhitida yuqori malakali va pedagogik kompetentsiya egasi bo'lgan o'qituvchilarga ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Ta'lim sohasidagi bunday ehtiyoj, ta'limning zamonaviy modellari, ularni takomillashtirish va tatbiqining turli mexanizmlari ishlab chiqilmaganligi tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi [2].

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

L.S.Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi [3]. D.N.Uznadzening ta'rifica, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulq shaklidir [4]. A.N.Leontev o'yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi [5].

Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagisi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi [2].

O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi.

Ularga quyidagilar kiradi:

- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- muloqot;
- ijtimoiylashuv.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakteriga — "ijod maydoni" ga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtinchalik izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar.

Tadqiqotchilar nazariy aspektida o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejorashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi quyidagilarni qamrab oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;

PEDAGOGIKA

- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;
- predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'rnida qo'llash;
- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet — ijro sohasi.

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi. O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, taibiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llaniladi.

O'yining didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarini qo'llash, umumta'ilim malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yining tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'nnaviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, yempatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatni motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nish, ehtiroslarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatish hamda psixoterapiyani nazarda tutadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar "o'yinli pedagogik texnologiyalar"ni tashkil etadi. Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi.

Pedagogik o'yinlar asosida talabalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

Pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'ladi:

- didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- o'quv materialidan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o'quv jarayoniga didaktik vazifa o'yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natjalari bilan bog'lanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega bo'lganligi bois bu mavzuga doir ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilyapti. Olimlar tomonidan o'tkazilgan so'ngi tadqiqotlar shuni ko'satdiki, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligi va tafakkur xususiyatlari o'rtasida o'zaro aloqalar mavjud. O'quvchilar darsda o'quv materialini o'zlashtirish bilan birga atrof-muhitni, voqeа va hodisalarни kuzatishga, solishtirishga, fikrlashga, o'z xulosalarini asoslashga o'rganishlari kerak. Ularda zarur bo'lgan iqtidor va malakalarini shakllantirishni o'yindan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bunda to'g'ri tanlangan didaktik o'yinlarda darsga har bir o'quvchining qobiliyatlarini o'stirish imkoniyatini beradi. Shunday ekan, o'qituvchi dastur mazmuniga muvofiq, o'yin jarayonini tashkil qilishda o'quvchilar faoliyatini aniq rejalashtirish, ular harakatini qo'yilgan maqsad sari yo'naltirish, topshiriq belgilangandan keyin o'yin qoidalarini ko'rsatib berish kerak. U darsga tayyorlanish jarayonida zarur didaktik materiallarni tayyorlab qo'yishi, o'yin vaqtini, uni uyuştirishni nazorat qilish, yakunlash va baholash kabi barcha tadbirlarni belgilab olishi kerak. O'yin jarayonining samarali davom etishi va o'yinda qatnasha olish darajasidagi bilimdan kutilgan darajaga erishishi uchun o'yin texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish kerak.

Shu bilan birga ta'lim jarayonida guruhda psixologiyaning faol, xususan munozara, dialog, breynshtorming va boshqa interfaol o'yin texnologiyalaridan keng va o'rinali foydalanish o'quvchiga ko'proq o'z fikrlarini izhor qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Shuni ham takidlab o'tish kerakki, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini yanada oshiradigan, o'quvchilarning darsdagи faolligini kuchaytiradigan o'yin texnologiyalaridan foydalanish

ta'lism samaradorligini yuksaltiradi. Zeroiki, xuddi shu oddiygina o'yin orqali o'sib kelayotgan bolaning tasavvuri samarali qaror topa boshlaydi.

Didaktik o'yin texnologiyasi – bu ta'lism berish jarayonida, ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida, usul va metodlar majmuasini, o'quvchilarga o'yin yordamida ta'limga tashkil etishga qaratilgan.

Boshlang'ich ta'lism yoshidagi bolalarga ta'lism(tarbiya)ni yosh hususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak, didaktik o'yinlar ko'rgazmalilik va o'yingga qaratilgan bo'lib bu davrda, bolani toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkoniyatini beradi. Boshlang'ich ta'lism yoshidagi bolalarga didaktik o'yin metodlari turli xilma – xil tarzda tashkil etish mumkin. Qo'g'irchoqlar, rasmlar, tarqatma materiallar va turli xil geometrik shakklardan foydalanish mumkin. Bu borada ruxshunos olimlarning fikri qanday? Ular bolani ortiqcha yukdan ozod qilish, saboqlarni me'yorlash, nazariy bilimlarni hammasini amaliy mashg'ulotlar zamiriga singdirishga e'tibor berish, o'yin – mashg'ulot turlarini ko'paytirish orqali samaradorlikka erishish mumkinligini takidlaydilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish, albatta, ta'limning sifatlari va samarali bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buning ushun har bir pedagog o'z ish jarayoniga ijodiy yondashishi, o'quvchilarning qobiliyati, bilimi va qiziqishlarini hamda o'tiladigan mavzuning mazmunini hisobga olgan holda interfaol o'yin turlarini tanlashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolaning hissiy bilish, ma'lumot va ko'nikmalarini qabul qilishga keng imkoniyat yaratish uchun erkinlik berish, uni ijodiy ishlar qilishga, bajargan ishini samarasini ko'rib quvonishga, yangi – yangi yutuqlarga yo'llash zarur. Bolalarga beriladigan bilimlar, ko'nikmalar asosan dars jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalangan holda singdirilishi, boshlang'ich sinfning o'quv yili davomida: kuzatish, taqqoslash, sanab ko'rish, rasm chizish, qo'shiq aytish, sayr qilishdan iborat bo'lib, bu bilan ta'lism elementlarini asta - sekin o'zlashtirib borishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda bola fikrlaydi, sanaydi, faraz qiladi, tevarak – atrof go'zalligidan bahramand bo'ladi, eng asosiysi bola bilim olishdan zerikmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-soni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y, 6-son.
2. G'oziev E. (2010). Umumiyl psixologiya. Toshkent.: Universitet, 312 b.
3. Выготский Л.С. Педагогическая психология. Москва: Педагогика, 1991. – 536 с
4. Узнадзе Д.Н. Психологические исследования. — М., 1966. 215.
5. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiyl psixologiya. Toshkent -2009. 334 bet.
6. Avloniy A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent.: O'qituvchi, 160 b.
7. Avazboev A.I. (2014). Ismadiyorov U.Y. Kasbiy Pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent.: 10 b.
8. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaliv Pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy qilish. – Toshkent.: 2008, 81 b.
9. Muslimov N., Usmonboeva M., Sayfurov D., To'raev A. (2015). Pedagogik kompetentlik va kreativlik. Toshkent.: – 120 b.